

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sharifova Maxliyo

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti

2-bosqich magistri

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida psixologik xizmat ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari va mamlakatimizda bu sohaga qaratilayotgan e'tibor haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, psixik taraqqiyot, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun.

Mamlakatimizda mustaqillik yilidagi ilk qadamlardan oq jamiyatning barcha sohalarini qamrab olgan siyosiy va iqtisodiy tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Ta'lim sohasida, jumladan, uning birinchi pog'onasi hisoblanmish maktabgacha ta'lim sohasida ham katta o'zgarishlar qilinmoqda.

Bolalarda aqliy taraqqiyot muammolari, quyidagilardan, bola shaxsiy va intellektual imkoniyatlari rivojlantirish uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratish asosida psixik taraqqiyotdan chetlashishlarni tuzatishdan, shaxsiy va axloqiy taraqqiyotidan yoqimsiz salbiy yo'nalishlarning oldini olish.

Psixika taraqqiyotini tuzatishlar "Korreksiya qilish" atamasi dastlab deffektologiyada kasal bolalarga nisbatan ishlatilgan bo'lsa, amaliy yosh psixologiyasining rivojlanishi bilan "tuzatish" tushunchasi normal psixik taraqqiyot uchun ham qo'llanila boshlandi. D.B.Elkonin tuzatishning yo'nalganligi va korreksiya va diagnostikasi xarakteriga bog'liq ravishda tuzatishning ikki usulini ajratishni taklif qiladi: chetlashish belgilariga qaratilgan simptomatik tuzatish va taraqqiyotidan chetlashish sabablari va manbalariga qaratilgan tuzatish hisoblanadi.

Psixologik maslahat berish amaliyotidan normal taraqqiyot korreksiyasi va normal taraqqiyot korreksiyasidan farqlanadi. Normal taraqqiyotda tuzatishning mazmuniga ko'ra quyidagi turlari ajratiladi, aqliy taraqqiyot korreksiyasi, shaxs va taraqqiyoti korreksiya, salbiy holatlarning oldini olish korreksiyasidir. Psixolog ishida korreksion vazifalarni yechish maksadida psixologik yordamni tashkil etishga bog'lik ravishda uning turini ko'rsatish mumkin: madaniy oqartuv ishlari, maslahat-tavsiyalar berish, individual va korreksiya.

Madaniy oqartuv ishlari - ota-onalar, tarbiyachilar, o'qituvchilarga mo'ljallangan bo'ladi. Bunday bola taraqqiyyoti asosiy qonuniyatlari, yosh psixologik xususiyatlari, har bir yoshning qiyinchiliklari, muammolari va ularni bartaraf etish bo'yicha umumiy tavsiyalar beriladi.

Maslahat tavsiyalar berish - bola boshidan kechirgan qiyinchiliklar sabablarini aniqlash asosida olib boriladi. Bunda psixolog ota-onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar hamda bolaning bajaradigan ishlarini tavsiyanomada beradi.

Uchinchi, mehnatni ko'p talab etadigan psixologning tuzatish ishi ota -onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar va bolalar guruhi, yoki individuall bir bola bilan hamkorlikda olib boriladi. Ishning ana shu turi ancha mehnat, vaqt ko'p metod va metodikalarni qo'llashni talab etsa ham ancha natijali hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi haqida gap borar ekan, avvalambor bu muassasaning bajaradigan vazifasiga to'xtalsak. Maktabgacha ta'lim muassasasi ta'lim – tarbiya muassasasi hisoblanadi va uning vazifasiga bola shaxsi asoslarini shakllantirish, uning bilishga doir qiziqishlarini, madaniy axloq-odob ehtiyojlarini, dastlabki mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish, unda bilimga muhabbat uyg'otish, salomatligini mustahkamlash kiradi. Maktabgacha ta'lim muassasasi "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni talablariga hamda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi. Maktabgacha ta'lim muassasasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga va boshqa me'yoriy hujjatlarga, shuningdek Maktabgacha ta'lim muassasasi Nizomiga amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning **asosiy maqsadi** yosh avlodni istiqlol mafkurasi asosida sog'lom, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash va maktab ta'limiga tayyorlashdan iboratdir.

Maktabgacha ta'lim oilada va maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarga ta'lim-tarbiya berishning **asosiy vazifalari** bolalarni jismoniy, aqliy va ma'naviy jihatdan rivojlantirishdan, ularning tug'ma layoqati, qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida muntazam ta'lim olishga (maktabga) tayyorlashdan iboratdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish "Uchinchi ming yillikning bolasi" tayanch dasturi asosida amalga oshiriladi. "Uchinchi ming yillikning bolasi" dasturida bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash tizimi quyidagi omillarga tayanadi;

- davlat va jamiyatning barkamol shaxsga bulgan ehtiyojining kuchayganligi;
- milliy o'zlikni anglash tuyg'usi rivojlanganligi;
- milliy, umuminsoniy, tarixiy an'analarga va o'zbek xalqining intellektual merosiga bo'lgan ijobiy munosabatning shakllanganligi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishi "Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari" orqali nazorat qilinadi. Davlat talablarida maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta'lim-tarbiya mazmunining asosiy yo'nalishlari hamda ularning maktabga tayyorlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar belgilab berilgan bo'lib, u davlat hujjati sifatida e'tirof etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2008. – 40 b.
2. «Ta'lim to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni // Oliy ta'lim Me'yoriy hujjatlari / Akademik S.S. G'ulomov tahriri ostida. – T.: "Sharq", 2001. – B. 3–18.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5325-sonli Farmoni.
4. Баратов Ш.Р. Социально-психологические основы создания психологической службы в Узбекистане: Автореф. дис. ... докт. психол. наук. – Т., 1998. – 37 с.
5. Баратов Ш.Р. Методология обучения прикладных психологов: психологические основы социального интеллекта в системе образования/ Вестник интегративной психологии. – Ярославль: 2013, – С. 48-49.
6. Xarakter aksentuatsiyasi tushunchasining ijtimoiy-psixologik tahlili
EDUCATION Scientic journal Mart 2022.663 bet
7. Ashurov R. Комплексный подход к изучению ценностных установок 24 выпуск 2022г 48-50 стр.
8. Yoshlarda irodaviy sifatlarni shakllantirishning psixologik xususiyatlari
EDUCATION Scientic journal Mart 2022.663 bet
9. Xarakter aksentuatsiyasining o'quvchilar orasidagi munosabatlarga ta'siri Eurasian Journal of Academic Research, 1(8), 14–16.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.5673781>